



MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK O'ZBEK XALQINING YUKSAK QADRIYATIDIR

Xaitmurodova Mahliyo

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Boshlang'ich ta'lim fakulteti

3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7578931>

ARTICLE INFO

Received: 18th January 2023

Accepted: 27th January 2023

Online: 28th January 2023

KEY WORDS

Millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, BMT, YuNESKO, baynalmilal, shovinizm.

ABSTRACT

Ushbu maqolada millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik g'oyalari o'zbek xalqining azal-azaldan qon-qoniga singib ketgan tushunchalar ekanligi to'g'risida so'z boradi.

Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan davlatlar qatoridan O'zbekistonning ham munosib joy olayotganligi bu, albatta, o'zbek xalqining mehnatsevarligi, jonkuyarligi, tinib-tinchimasligi natijasidir. Shu o'rinda yana bir narsani ta'kidlab o'tishimiz joizki, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik tushunchalari ham o'zbek xalqining azal-azaldan qon-qoniga singib ketgan qadriyatlar hisoblanadi. Aynan ana shu qadriyatlarning har bir o'zbek qoniga yaxshi singgani ham tom ma'noda mamlakat rivojiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Iftixor bilan aytishimiz mumkinki, jamiyat hayotining barcha jabhasida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar o'z samarasini berayapti. Binobarin, istiqloq yillarida Vatanimizda yashayotgan turli millatlar o'rtasida o'zaro hurmat, tenghuquqlilik hamda hamjihatlikni mustahkamlash, uning qonuniy asoslarini yaratishga alohida e'tibor qaratildi.[3]

Ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni saqlash, dinlararo va millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish hisobiga xalqaro maydonda O'zbekistonning obro'si oshib bormoqda.

Shu bilan birgalikda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik tushunchalarini har bir inson ongi-shuuriga singdirish borasida ham ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mamlakatimizda 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, mazkur sohaga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, so'nggi to'rt yilda millatlararo munosabatlar va din sohasida 50 dan ortiq qonun hujjatlari va 40 ga yaqin qarorlar qabul qilindi.[3]

Umuman olganda, millatlararo totuvlik g'oyasi bu – umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqah va davlatlar milliy taraqqiyotida muhim omil hisoblanadi.[4]

Hozirda mamlakatimizda statistik ma'lumotlarga ko'ra, 136 millat, elat, xalq va etnik guruhlarining vakillari yashaydi. Ularning har biri o'z milliy-madaniy urf-odatlarini,



an'analari, tiliga, konstitutsiyaviy huquqiy tenglikka ega. O'zbekistonda bugungi kunda 136 dan ortiq milliy-madaniy markaz faoliyat ko'rsatmoqda. Shu yo'nalishda markazlar tuzish bo'yicha 15 ta tashabbuskor guruh ish olib bormoqda. Shunga ko'ra, 2020-yilda milliy-madaniy markazlar soni 138 tagacha yetdi.[5]

O'zbekistonda barcha millat vakillariga teng huquqli munosabat davlat qonuni bilan mustahkamlangan. Buning ijobati maktablarimizda 9 ta milliy tilda o'qitish ishlari, 20 ta tilda ommaviy axborot nashrlari faoliyat ko'rsatayotganligida ko'rinmoqda.[5]

Bundan tashqari yurtimizda baynalmilal madaniyat markazlari ham faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan, 1992-yil 13-yanvar sanasida Toshkentda Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil qilindi. Respublika baynalmilal madaniyat markazi millatlararo munosabatlar, O'zbekiston Respublikasida yashovchi har xil millatlar va elatlar vakillarining totuvligi va hamkorligini ta'minlash, ularning o'ziga xos madaniyatlari va ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash sohasidagi siyosatni amalga oshirishda davlat organlariga va jamoat tashkilotlariga ko'maklashuvchi mustaqil muassasa hisoblanadi. Markazning asosiy vazifalari millatlararo totuvlik prinsiplari qaror topishiga yo'naltirilgan ijtimoiy tashabbuslarni rag'batlantirish, muvofiqlashtirish va taqdirlash, millatlararo munosabatlar madaniyatini rivojlantirish hisoblanadi.[5]

Albatta, yuqorida nomi keltirilgan markazlar insonlar ongida millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik g'oyalarini chuqurroq singdirishga xizmat qilib kelmoqda.

Afsuslar bo'lsinki har bir narsaning ziddi bo'lganidek millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik g'oyalariga rahna soluvchi illatlar ham mavjud. Bular tajovuzkor millatchilik va shovinizmdir.[4] Bunday zararli g'oyalar ta'siriga tushib qolgan jamiyat beqarorlik holatiga yuz tutishi muqarrar bo'lib qoladi. Insonlar orasida yolg'onchi, yot g'oyalarni tarqatayotganlar, asosan, din niqobi ostida harakat qiladigan shaxslar hisoblanadi. Aslini olganda, dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi, yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi fazilatlarga tayanadi. Odamlarni halollik va poklik, mehr-shavqat va bag'rikenglikka da'vat etadi. Ammo mana shunday fazilatlarni tushunmaydigan insonlar Islom dinini niqob qilib, aholi o'rtasida kelishmovchilik, buzg'unchilik holatlarining kelib chiqishiga sababchi bo'lishmoqdalar. Bu buzg'unchilik g'oyalariga qarshi ko'p yillar davomida ayovsiz kurashlar olib borilgan va hozirda ham davom etmoqda. Jumladan, 2018-yil 12-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasi qabul qilindi.

Ellikdan ziyod davlat hammuallifi bo'lgan mazkur rezolyutsiyani BMT ga a'zo barcha mamlakatlar bir ovozdan qo'llab-quvvatladi.[1] Bundan tashqari, taraqqiyotning asosiy omillaridan biri bo'lgan bag'rikenglik borasida 1995-yil 16-noyabrda BMT tizimida Fan, ta'lim va madaniyat sohasida ixtisoslashgan tashkilot (YuNESKO) bosh konferensiyasining 28-sessiyasida "Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi" qabul qilindi. Deklaratsiyada irqi, jinsi, kelib chiqishi, tili, dinidan qat'i nazar, bag'rikenglikni targ'ib etish, inson huquq va erkinliklariga hurmat bilan qarash kabi majburiyatlar belgilab qo'yilgan.[2]

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida ijobiy va o'zaro hurmatga asoslangan muhitni mustahkamlash



borasida olib borilayotgan islohotlar natijasida millatlararo va dinlararo munosabatlarning yangi modeli yaratildi. Ushbu model turli millat va din vakillari o'rtasidagi millatlararo va dinlararo muloqot, konstruktik yondashuv va barcha fuqarolarning qonun oldida tengligiga asoslanadi.[3]

Yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha qilib aytadigan bo'lsak, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik g'oyalari o'zbek xalqining yuksak qadriyati ekanligi har jabhada o'z ifodasini topmoqda. Shunday ekan, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan har bitta millat va elat vakillari bir-biri bilan ahil va inoq bo'lib yashasalar, yurtimiz kundan-kunga ravnaq topib boraveradi.

References:

1. Quدراتilla Rafiqov. – “Mening prezidentim” Toshkent: “Akademnashr”, 2021. – 320 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi saytlari: <https://mineconomy.uz.>node>>
3. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi saytlari: <https://iiv.uz>news>>
4. <https://staff.tiame.uz>users>PDF> – 21 ta sahifa
5. Islomova S. (2020) O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik.
6. <http://iht.uz>download>slides> PDF – 11 ta sahifa